

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

LATIPOVA GAVHAROY SHAVKATOVNA

**MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING
SHAXSIY-KREATIV SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of the abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Latipova Gavharoy Shavkatovna

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini
rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish.....3

Латипова Гавхар Шавкатовна

Совершенствование механизма развития личностного и креативного
потенциала обучающихся в процессе повышения квалификации.....23

Latipova Gavkhar

Improving the mechanism for developing listeners' the personal and creative
potential in the process of professional development..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publications.....49

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/2025.27.12.Ped.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

LATIPOVA GAVHAROV SHAVKATOVNA

**MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING
SHAXSIY-KREATIV SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PHD/Ped8063 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan hamda Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bimm.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Adizov Baxtiyor Raxmonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Shoymardonov Tuymurod Turdialiyeovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "25" 08 kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy). Tel.: (+99871) 202-01-20, faks: (+99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz.

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (39 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20, info@bimm.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "10" 08 da tarqatildi.
(2026-yil "10" 08 daqi 12 raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

A.S.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Ya.U.Ismadiyarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida modernizatsion ta'lim tizimida malaka oshirish kurslari tinglovchilarning kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish jarayonida shaxsiy-kreativ yondashuvlarga muhim ustuvorlik qaratilmoqda. YUNESKOning "Futures od Education: Reimagining our futures together(2021)"¹ dasturida qayd etilishicha, ta'limni jamiyatning uzluksiz hamkorlikdagi jarayoni sifatida talqin etilishi hamda pedagoglarning o'z kasbiy kompetensiyalarini doimiy ravishda rivojlantirib borish zarurligi talab etiladi. Shu bilan birga, malakali, tanqidiy fikrlaydigan, raqamli transformatsiya sharoitida yangiliklarni o'zlashtirish, ta'lim amaliyotiga joriy etish, o'zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashuvchan, rivojlangan shaxsiy-kreativ salohiyatga ega pedagog shaxsini qaror toptirish muhim dolzarblik kasb etadi.

Jahonda pedagoglarning uzluksiz malakasini oshirish tizimida uch xil ta'lim modeli – an'anaviy, zamonaviy va gibrid (aralash) shakllarining o'zaro muvozanatli kombinatsiyasini ta'minlash, tinglovchilarda universal kompetensiyalarni rivojlantirish, "butun hayot davomida ta'lim olish" tamoyiliga ustuvorlik berish asosida uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etishga doir qator ilmiy izlanishlar borilmoqda. Singapur, Yaponiya, Finlandiya, Germaniya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda pedagog kadrlarning shaxsiy-kreativ salohiyatini muntazam rivojlantirib borishga ustuvor ilmiy yo'nalish sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, malaka oshirishning muqobil shakllari samaradorligini baholash, malaka oshirishga xizmat qiluvchi moslashuvchan ta'lim dasturlarini loyihalash, andragogik yondashuv asosida individual ta'lim trayektoriyalarini amalga oshirish orqali tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish modelini takomillashtirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda kasbiy-pedagogik yo'nalishga xizmat qiluvchi maqsadli malaka oshirish tizimini takomillashtirish, eng yangi fan va texnika yutuqlarini o'zlashtirish layoqatiga ega, shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga munosib hissa qo'shadigan malakali pedagog xodimlarni tayyorlash va bu boradagi zamonaviy, ilg'or o'qitish texnologiyalarini amaliyotga joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan; ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash, pedagoglik kasbiga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab-tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish"² pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa, tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari, ushbu jarayonning nazariy modeli hamda mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

¹ UNESCO. *Futures of Education:Reimagining Anew social our futures contract for together education.* – Paris:2021. – 186p. – P.88

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги ПҚ-4623-сон "Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 28.02.2020 й., 07/20/4623/0220-сон, 13.06.2020 й., 07/20/4749/0758-сон.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabrdagi 797-son "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 11-iyuldagi 415-son "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda shaxsiy-kreativ g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlaridan R.Jurayev, N.Azizxodjayeva, Sh.Mardonov, D.Yunusova, M.Yuldashev, B.Xodjayev, M.Mirsoliyeva, A.Ibragimov, G.Ibragimova, Sh.Pozilova, A.Djurayev, M.Jumaniyozova, T.Shoyardonov, A.Radjiyev, D.Xakimova, D.Xidoyatovalarning ilmiy izlanishlarida malaka oshirish jarayonida pedagog xodimlarni ijodiy faoliyatga tayyorlash, andragogik ta'limni tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish hamda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari yoritib berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan Yu.Varlakova, V.Popov, E.Bocharova, A.Kiryanov, S.Lavrenova, V.Slastenin, B.Osipov, A.Xon, I.Kolesnikova, V.Deliya, M.Deneko, M.Gromkova, Ye.Grishina, Ye.Muxamedvaleeva, Ye.Zelenina, A.Bondareva, O.Markevich, Ye.Shmelova kabi olimlar tomonidan ilmiy-ta'limiy makonda insonning shaxsiy va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga oid psixologik mexanizmlar, yangilik va o'zgarishlarni joriy etish bosqichida psixologik to'siqlarni bartaraf etish, pedagoglarning ijodiy salohiyatini takomillashtirish hamda kreativlikka yo'naltirilgan muhitni qaror toptirish yo'llari tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan M.Dodgson, K.Rodgers, R.Bauer, T.Byuzen, D.Simonton tomonidan pedagog shaxsidagi ijodiy, shaxsiy, kasbiy va kreativ salohiyatni rivojlantirishning falsafiy, psixologik va pedagogik yo'nalishlari, shaxsning ijodkorlikka asoslangan faoliyatini tashkil etish masalalari o'rganilgan.

Biroq malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning mazmun-mohiyati, jarayonga xos pedagogik-psixologik xususiyatlar, shaxsiy-ijodiy muhitni tashkil etishning pedagogik mexanizmlari bugungi kunga qadar maxsus tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan. Bundan tashqari, andragogik ta'limga ustuvorlik berish orqali tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatni rivojlantirishning konseptual modeli, shaxsiy-kreativ salohiyatni

rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillarining yetarlicha asoslanmaganligi, jarayonni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish zarurati mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Oliy ta'lim tizimi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining IL-4821091576. "Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta'lim va qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarida o'quv faoliyatini tashkil etish" (2022-2024 yy.) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish muammosining o'rganilishini tahlil etish asosida mazkur jarayonning tuzilmaviy, dinamik xususiyatlari va pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning pedagogik modelini takomillashtirish;

tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish jarayonini samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi produktogen omillar, metodologik yondashuvlar va "harakatlantiruvchi kuchlar"ni tahlil etish asosida takomillashtirish;

zaruriy pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish asosida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish tanlab olinib, tajriba-sinov ishlariga O'zbekiston milliy universiteti, Buxoro davlat universiteti va Farg'ona davlat universiteti huzuridagi mintaqaviy markazlarining 222 nafar tinglovchisi ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tizimli tahlil, so'rovnoma, online-test, modellash, pedagogik eksperiment, natijalarni matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning uzluksiz dinamik konstruktiv jarayonga xos tarkibiy asoslarning real va reallashmagan salohiyatlarining faollashuvini ta'minlovchi kasbiy o'sishga xos innovatsion yondashuvlarni effektiv o'zlashtirish bilan dialektik qayta aloqasi nostatik xususiyatlarini bevosita hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish modelining tashkiliy-jarayonli komponenti shaxsiy-kreativ salohiyatning namoyon bo'lishini ta'minlovchi relevant bosqichlar dinamikasini mikrotalim fazalariga muvofiq modifikatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish jarayoni determinantlari qadriyatli yo'nalishlar, samarali birgalikdagi faoliyat, shaxslararo munosabatlar kabi bazislarning shaxsiy-kreativ faoliyatga taalluqli, tashqi va ichki qonuniyatlarni kognitiv va psixologik to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan konseptual-nazariy asos ekanligini kompleks maqsadli belgilash orqali aniqlashtirilgan;

tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti mazkur jarayonni amalga oshirishning prognostik, transformatsion, innovatsion funksiyalari qayta aloqasi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan androgogik-ta'limiy muhitni shakllantirish shartlari va uning didaktik resurslarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

malaka oshirish kursi tinglovchilari uchun mo'ljallangan "Til ko'nikmalarini o'qitishda yangi pedagogik yondashuvlar" nomli o'quv qo'llanma chop etilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 5683-4969-80-57-8781-3788-3714-8655-sondagi nashr ma'lumotnomasi);

"Tarix" yo'nalishi tinglovchilarining shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan;

"Tarix" yo'nalishi malaka oshirish kursining o'quv dasturi va o'quv-uslubiy majmualari takomillashtirilgan;

malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlanishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning mazmun-mohiyati, tuzilmasi, komponentlarining ochib berilganligi, shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning aniqlashtirilganligi, shaxsiy-kreativ salohiyat komponentlariga muvofiq keluvchi mezon va ko'rsatkichlarning ishlab chiqilganligi, shaxsiy-kreativ fikrlashni tarkib toptirishning kasbiy salohiyatni oshirishdagi o'rni va ahamiyatining asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish algoritmining ishlab chiqilganligi, shaxsiy-kreativ salohiyatni rivojlantirish modelining takomillashtirilganligi, shaxsiy-kreativ salohiyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarining aniqlashtirilganligi, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning uzluksiz dinamik konstruktini jarayonga xos tarkibiy asoslarning real va reallashmagan salohiyatlarining faollashuvini ta'minlovchi kasbiy o'sishga xos innovatsion yondashuvlarni effektiv o'zlashtirish bilan dialektik qayta aloqasi nostatik xususiyatlarini bevosita hisobga olish asosida aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 5683-4969-80-57-8781-3788-3714-8655-sonli nashr ma'lumotnomasi bilan ro'yxatga olingan "Til ko'nikmalarini o'qitishda yangi pedagogik yondashuvlar" nomli o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 17-fevraldagi 02/01-01-102-son ma'lumotnomasi). Natijada, malaka oshirish o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish modelining tashkiliy-jarayonli komponentini shaxsiy-kreativ salohiyatning namoyon bo'lishini ta'minlovchi relevant bosqichlar dinamikasini mikrota'lim fazalariga muvofiq modifikatsiyalash asosida takomillashtirishga doir takliflardan 2022-2024-yillarda bajarilgan Oliy ta'lim tizimi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining IL-4821091576. "Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta'lim va qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarida o'quv faoliyatini tashkil etish" amaliy loyihasi doirasidagi vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 17-fevraldagi 02/01-01-102-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'limda faoliyat olib boradigan pedagog kadrlar innovatsion kompetentligini kreativ ko'nikmalar bilan takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish jarayoni determinantlarini qadriyatli yo'nalishlar, samarali birgalikdagi faoliyat, shaxslararo munosabatlar kabi bazislarning shaxsiy-kreativ faoliyatga taalluqli, tashqi va ichki qonuniyatlarni kognitiv va psixologik to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan kontseptual-nazariy asos ekanligini kompleks maqsadli belgilash orqali aniqlashtirishga doir amaliy takliflardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 5683-4969-80-57-8781-3788-3714-8655-sonli nashr ma'lumotnomasi bilan ro'yxatga olingan "Til ko'nikmalarini o'qitishda yangi pedagogik yondashuvlar" nomli o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 17-fevraldagi 02/01-01-102-son ma'lumotnomasi). Natijada, tinglovchilarning shaxsiy-kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishga xizmat qilgan;

tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti mazkur jarayonni amalga oshirishning prognostik, transformatsion, innovatsion funksiyalari qayta aloqasi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan androgogik-ta'limiy muhitni shakllantirish shartlari va uning didaktik resurslarini ishlab chiqish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 5683-4969-80-57-8781-3788-3714-8655-sonli nashr ma'lumotnomasi bilan ro'yxatga olingan "Til ko'nikmalarini o'qitishda

yangi pedagogik yondashuvlar" nomli o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 17-fevraldagi 02/01-01-102-son ma'lumotnomasi). Natijada, tinglovchilarning shaxsiy-kreativlikka yo'naltirilgan metodik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy-uslubiy ish, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida oliy ta'lim tizimida sifatni ta'minlash va malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning o'zaro aloqadorligi, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning amaldagi holati yoritib berilgan.

Ma'lumki, malaka oshirish tizimi – bu pedagogning kasbiy faoliyatini yangilash, innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirish hamda shaxsiy va ijodiy o'sish imkoniyatlarini kengaytirish jarayonidir. Malaka oshirish mazmuni tinglovchilarning o'z mutaxassisliklari bo'yicha zamonaviy ilmiy yutuqlar, ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion texnologiyalarni egallash orqali kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarda yangicha yechim topish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Quyidagi jadvalda ilg'or xorijiy tajribalar asosida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari o'z aksini topgan (1-jadvalga qarang).

**Ilg'or xorijiy tajribalar asosida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini
rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari**

Xorijiy model	Oliy ta'lim sifatiga ta'siri	Ahamiyati	Kreativ rivojlanishga ta'siri	Mexanizm
Benchmarking	Benchmarking orqali ilg'or tajribalarni o'rganish ta'lim jarayonida raqobatbardoshlik va sifat standartlarini oshiradi. Chunki o'quv dasturlari rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida takomillashtiriladi.	Benchmarking – qiyosiy tahlil tizimi tinglovchining tahlil qilish, qiyoslash, ilg'or tajribadan foydalanish qobiliyatini rivojlantiradi.	Tinglovchi qiyosiy tahlil orqali faqat tayyor modellarni emas, balki ulardan ilhom olib, yangi yechimlar ishlab chiqishga intiladi. Masalan, xorijiy metodikani mahalliy sharoitga moslashtirish jarayonida ijodiy yondashuv rivojlanadi.	Tinglovchi xorijiy va mahalliy tajribalarni qiyosiy tahlil qilib, "qanday qilib yaxshiroq natijaga erishsa bo'ladi?" degan savolga ijodiy yechimlar topadi.
Total Quality Management (TQM)	TQM ta'lim jarayonida sifatni barcha bosqichlarda ta'minlashni talab qiladi. Bu pedagogik jarayonda aniq mezonlar, natijadorlik va shaffoflikni oshiradi.	TQM – sifatni boshqarishning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi tizim.	Tinglovchi TQM doirasida har bir jarayonni optimallashtirish uchun yangi g'oyalar ishlab chiqishga majbur bo'ladi. Masalan, ta'lim jarayonida vaqt va resurslarni tejash uchun yangicha texnologiyali yechimlarni taklif qilish.	Tinglovchilar guruhli ishda sifat mezonlarini belgilaydi va ularni ijodiy yo'l bilan amalga oshirish rejasini ishlab chiqadi.
Blended Learning	Zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, chunki interaktivlik va modulli ta'lim imkoniyatlari kengayadi.	An'anaviy va onlayn ta'limning uyg'unlashuvi tinglovchining raqamli texnologiyalardan ijodiy foydalanish imkoniyatini oshiradi.	Tinglovchi multimedia resurslar yaratish, elektron muhitda innovatsion muloqot olib borish, infografika va taqdimot tayyorlash jarayonida ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Bu raqamli kreativlikni kuchaytiradi.	Taqdimotlar va infografika-larni mustaqil tayyorlash, virtual muhokama forumlarida innovatsion g'oyalarni ilgari surish.
Tuning	Tuning tizimi ta'lim maqsadlarini aniq kompetensiya-larga bog'laydi, bu esa ta'lim jarayonini natijaviy yo'naltirilgan amaliyotga yaqin qiladi.	Bu tizimda ta'lim maqsadlari kompetensiyaga yo'naltirilgan	Tinglovchida muammolarni hal qilish, mustaqil qaror qabul qilish, yangi g'oyalar ishlab chiqish kompetensiyalari shakllanadi. Masalan, keys-study, loyiha ishlab chiqish va innovatsion yechimlarni amalga oshirish jarayonida ijodiy yondashuv talab etiladi.	Tinglovchi-larga loyiha ishlab chiqish, keys tahlil qilish, turli sohalaridagi innovatsion yechimlarni amalga oshirish topshiriqlari beriladi


Oliy ta'lim sifatiga yo'naltirilgan innovatsion yondashuv tizimlari (Benchmarking, TQM, Blended Learning, Tuning) malaka oshirish jarayoniga

integratsiya qilinganda, tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyati sezilarli darajada rivojlanadi. Bu jarayon nafaqat ularning individual rivojlanishiga, balki oliy ta'limning umumiy samaradorligi va raqobatbardoshligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida pedagog kadrlarning malakasini oshirish bugungi kunda alohida ahamiyatga ega. Chunki ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarga ta'lim berish, talabalarni kelajakka yetuk insonlar qilib tayyorlash singari dolzarb vazifalarni bajarish uchun zamonaviy fikrlovchi, bugungi davr talablariga munosib bo'lgan, yuksak axloqiy fazilatli pedagoglar faoliyat yuritishlarini taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish, o'z-o'zini anglash va refleksiv baholash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek innovatsion pedagogik muhitni yaratish muhim ilmiy-metodik vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot davomida ko'plab ilg'or xorijiy tajribalar asosida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlari ajratib olindi. Shuningdek, birinchi bobda ijodkorlik va kreativlik tushunchalarining o'zaro munosabatiga ko'ra yondashuvlar ham alohida ajratib tahlil qilingan. Sinonimik yondashuvga ko'ra, "ijodkorlik" va "kreativlik" tushunchalari bir ma'noli deb hisoblansa, funksional yondashuvda ijodkorlik keng qamrovli jarayon bo'lib, kreativlik uning subyektiv-psixologik asosini tashkil etadi. Strukturaviy yondashuvda kreativlik shaxsning qobiliyati sifatida, ijodkorlik esa ushbu qobiliyatning amaliy faoliyatdagi namoyoni sifatida talqin qilingan.

Yuqoridagi tahlillar asosida malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatni rivojlantirish tuzilmasi aniqlashtirildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish tuzilmasi

Tadqiqot natijalari asosida malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning quyidagi omillari aniqlashtirildi: kognitiv (intellekt, bilimlar); konativ (kognitiv uslub, shaxsiy xususiyatlar, motivatsiya); emotsional; muhit bilan bog'liq.

Empirik tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili asosida shaxsiy-kreativ salohiyat tushunchasiga **mualliflik yondashuvi asosida** quyidagicha ta'rif berildi: "pedagogning shaxsiy-kreativ salohiyati – bu uning individual-psixologik xususiyatlari, hayotiy va kasbiy tajribasi hamda ichki motivatsiyasiga tayangan holda, yangi g'oyalarni ilgari surish, mavjud bilim va tajribani nostandart tarzda qayta talqin qilish, muammoli vaziyatlarda moslashuvchan va samarali yechimlar ishlab chiqish hamda o'z faoliyatini refleksiv tahlil qilish orqali ijodiy o'z-o'zini namoyon etishga qodirligini ifoda etuvchi integrativ shaxsiy sifati"dir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning mazmunli-tashkiliy mexanizmi"** deb nomlangan bo'lib, unda tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik determinantlari, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish modeli hamda malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish mexanizmi yoritib berilgan.

Mazkur bobda, avvalo, shaxsning kasbiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi qarama-qarshiliklar, ularning turlari, ichki va tashqi motivlar, tashqi va ichki "majburlash", andragogika nazariyasining asosiy qoidalari tahlil qilinib, malaka oshirish tizimida faoliyat yuritayotgan tinglovchilarni mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondashuvga ega va o'z-o'zini rivojlantira oladigan shaxs sifatida rivojlantirish jarayonining o'ziga xos qonuniyat va tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, shaxsiy-kreativ salohiyatni rivojlantirishni ta'minlovchi asosiy harakatlantiruvchi kuchlar: ehtiyoj va motiv, aniq ongli maqsad, qadriyatli yo'nalishlar tizimi, tinglovchining birgalikdagi faoliyatining mazmun-mohiyati, innovatsion ta'lim muhiti, motivatsion omillar, hamkorlikka asoslangan interfaol ta'lim shakllari hamda o'zaro refleksiv tahlil tizimining pedagogik ahamiyati hamda ehtiyoj va motivlar tinglovchining shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning dominant harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilingan.

Tadqiqot jarayonida tinglovchi shaxsiy-kreativ salohiyatni uzluksiz rivojlantirishning ichki va tashqi qonuniyatlari va tamoyillari aniqlangan. Tashqi qonuniyatlar sifatida: ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va davlat talablarining ta'lim tashkilotining yangi maqsadlari va funksiyalarining paydo bo'lishiga ta'siri; pedagogik faoliyatdagi kreativ o'zgarishlarning asosiy iste'molchilar (davlat, jamiyat, shaxs) talablariga muvofiqligi; tinglovchi shaxsini o'z-o'zini rivojlantiradigan ijtimoiy tizim sifatida rivojlantirish ta'lim tashkilotida kreativ muhit mavjud bo'lganda muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, ichki qonuniyatlariga: psixologik qonuniyatlar kirishi, ular "mutaxassisning samaradorligi darajasi u yoki bu sohada erishgan natijalari va ushbu darajani belgilaydigan subyektiv yoki

obyektiv omillar o'rtasidagi barqaror aloqalarni" aks ettirishi ilmiy asoslangan holda izohlab berilgan.

Shuningdek, ikkinchi bobda malaka oshirish jarayonida o'quv modullarini tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlarini oshirish maqsadida fanlararo modulli ta'lim texnologiyasini joriy etish mexanizmi ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim amaliyotida modulli ta'lim texnologiyasini qo'llashning uchta darajasini ajratib ko'rsatish ilmiy asoslangan. Tadqiqot doirasida akmeologik yondashuv asosida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish komponentlari aniqlashtirildi. Ushbu komponentlarning mohiyatini ochib berishda: obyektivlik, oriyentatsiya, tizimlilik, aspektlar, qo'shimchalar (boshqa tamoyillarni almashtirmasdan yoki bir-birining "ustiga chiqmas"dan to'ldirish) kabi mezonlardan foydalanildi.


Tadqiqot doirasida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatni rivojlantirish modeli (2-rasmga qarang) ishlab chiqilib, u maqsadli, mazmunli, faoliyatni tashkil qilish va natijaviy komponentlardan iborat.

Maqsadli blokda malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish jarayonining asosiy yo'nalishini aniqlash, loyihalanayotgan modelning kutiladigan natijasi sifatida tinglovchilarning shaxsiy, kasbiy-kreativ bilim, ko'nikmalari va intellektual qobiliyatlarini takomillashtirish, uning kasbiy tajribasi hamda shaxsning motivatsion-boshqaruvga doir sifatlarini shakllantirish belgilab berildi.

Mazmunli blok tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishni ko'zda tutuvchi uzluksiz kasbiy rivojlanish mazmunini o'zida aks ettiradi. Mazmunli blok komponenti ikkita asosga: pedagog kadrning nazariy va metodik bilimlariga tayanadi.

Modelning uchinchi komponenti – faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq bo'lib, tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish jarayonida foydalaniladigan shakl, metod va vositalarni aniqlashtirishdan iborat. Bizning tadqiqotimizda tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning asosiy shakllari sifatida metodik ish shakllaridan foydalanildi. Shunga ko'ra tadqiqot davomida metodik ishlarning ham individual, ham guruhviy shakllari alohida tadqiq etilgan.

Natijaviy blok tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning oraliq va yakuniy natijalarini aniqlab beradi. Mazkur komponent modelning maqsadga yo'naltirilgan komponenti bilan bog'liq va uch bosqichdagi barcha vazifalarga erishish ko'rsatkichlarini o'zida aks ettiradi. Bosqichma-bosqich erishiladigan asosiy natijalar asosida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ faoliyat sohasiga doir nazariy bilimlarining chuqurligi, kreativ faoliyat negizida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni tinglovchilarning amalda qayta anglay olishi; tinglovchilarning kreativ faoliyati natijaviyligining ortishi, yangi ta'limiy yutuqlarga kreativ faoliyatning yo'nalganligi modelning ilmiy asoslanganligini ko'rsatadi.



2-rasm. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish modeli

Tadqiqot doirasida kasbiy rivojlanish jarayonida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish mazmuni, modeli va pedagogik shart-sharoitlarini loyihalash orqali mazkur faoliyatni amalga oshirishning takomillashtirilgan mexanizmi ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish mexanizmi

3-rasmida keltirib o'tilgan tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish mexanizmi professor-tinglovchilarning yuqori o'quv, ilmiy-tadqiqotchilik, amaliy faolligini ta'minlaydi hamda ta'limiy, ilmiy va amaliy faoliyatni integratsiyalash imkonini berib, shaxsiy-kreativ salohiyat mazmunini o'z vaqtida yangilab borish, individual ehtiyojlarni muntazam monitoring qilib borish hisobiga resurslarni maqsadli yo'naltirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish samaradorligi”** nomli uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish mazmuni hamda tajriba-sinov ishlari natijalari va statistik tahlili yoritib berilgan.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish modeli, uni amaliyotga joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari hamda mexanizmining samaradorligini baholashdan iborat etib belgilandi.

Tajriba-sinov ishlari 2023-yildan 2025-yilgacha O'zMU, FarDU, BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mintaqaviy markazlari bazasida tashkil etildi.

Belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi: asoslovchi, shakllantiruvchi va umumlashtiruvchi. Har bir bosqichda o'ziga xos vazifalar hal etildi, tadqiqot maqsadiga erishish yo'lida olingan oraliq natijalar aniqlashtirildi.

Asoslovchi tajriba-sinov bosqichi(2023-yil)ning maqsadi tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish modelini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarning zaruriyatini asoslashdan iborat etib

belgilandi. Mazkur bosqichda tadqiqot mavzusining dolzarbligi aniqlanib, tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning mavjud holati o'rganildi. Psixologik-pedagogik va metodik manbalar tahlili asosida shaxsiy-kreativ salohiyatni rivojlantirishga oid nazariy konsepsiyalar hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ilmiy asoslari aniqlab olindi.

Tadqiqotning mazkur bosqichida quyidagi asosiy metodlardan foydalanildi: anketa, test, suhbat, nazariy, amaliy va trening mashg'ulotlari jarayonini kuzatish, tahliliy jadvallarni tuzish.

Shakllantiruvchi (2024) tajriba-sinov ishlarining maqsadi tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish modelini sinovdan o'tkazish, har bir pedagogik shart-sharoitning samaradorligini baholashdan iborat bo'ldi. Mazkur bosqichda turli pedagogik jamoalar uchun xilma-xil pedagogik shart-sharoitlar yaratish; ishlab chiqilgan modelni to'liq amalga oshirish; o'zgarishlarni tashxis va qayd etish hamda vaziyatdan kelib chiqqan holda tuzatishlar kiritish vazifalari hal etildi. Ushbu bosqichda quyidagi tashxis metodlari qo'llanildi: test, anketa, ekspert baholash.

Umumlashtiruvchi va natijalarni baholash (2025-yil) bosqichining maqsadi shakllantiruvchi tajribaviy ishlar natijalarini tahlil etishdan iborat etib belgilandi. Mazkur bosqichning vazifalari sifatida natijalar tahlili; tadqiqot maqsadi va vazifalari bilan natijalarni uyg'unlashtirish; aniqlangan mezon va ko'rsatkichlarni miqdoriy ekvivalentga o'tkazish; qayta tajriba-sinov ishlarini o'tkazish hamda birinchi va takroriy tajriba-sinov natijalarini taqqoslash ishlari tanlab olindi(2-jadvalga qarang).

Mazkur bosqichda quyidagi metodlardan foydalanildi: pedagogik kuzatish, ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil, umumlashtirish, sintez va tanqidiy tahlil.

2-jadval

Tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini baholashning diagnostik vositalari tizimi

№	Baholash mezonlari	Ko'rsatkichlar	Baholash metodikasi (metodlari)
1.	Kreativ bilim	To'liqlik, anglanganlilik	Test
2.	Kreativ ko'nikmalar	Muammoni tahlil etish; yechim uchun variantlar izlash; boshqaruvga doir samarali qarorlar qabul qilish	Hujjatlarni tahlil etish; boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash
3.	Kreativ tajriba	Shaxsiy kreativ ishlanmalari; kreativ loyihalarda ishtirok etish	Hujjatlar tahlili; analitik qaydlarni o'rganish; o'zini-o'zi tahlil etish
4.	Shaxsiy xususiyatlari	Kreativlik; o'z-o'zini boshqarish, tolerantlik	Suhbat; munozara, intervyu, kuzatish; maxsus pedagogik vaziyatlar
5.	Kreativ fikrlash	Tizimlilik; egiluvchanlik; tanqidiylik	Test
6.	Virtual kreativ tajriba	O'quv loyihalarida ishtirok etish; innovatsiyalarni guruhda ishlab chiqishda ishtirok etish	Mashg'ulotlar jarayonida bevosita kuzatish; mustaqil amaliy ishlarni tahlil etish
7.	Motivatsiya	Uzluksiz kasbiy rivojlanish; kasbiy faoliyatni takomillashtirish; o'z-o'zini rivojlantirishga intilish	Kasbiy faoliyat motivatsiyasini ekspert baholash

Tajriba-sinov ishlariga 3 ta tajriba va 3 ta nazorat guruhiga birlashtirilgan 222 nafar tinglovchi qamrab olindi. Tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatining rivojlanganligini baholash uchun maxsus mezonlar tanlandi. Mezonlarni tanlab olishda o'zaro moslik tamoyili, ya'ni agar olingan axborotlar o'lchash obyektlariga mos bo'lsa, unga ishonish mumkinligiga tayanildi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda shaxsiy-kreativ salohiyatning har bir mezoni uchun aniq ko'rsatkichlar belgilab olindi.

